

Komil Yashin

Atoqli adib va jamoat arbobi Komil Yashin (No'monov) 1909 yili Andijon shahrida tug'ildi. O'rta maktabni tugatgach, 1925 yilda Leningradda o'qiydi, so'ngra maktabda o'qituvchilik qiladi. 1930-1936 yillarda Yashin O'zbek Davlat Muzika teatrida adabiy emakdosh, 1946-1949 yillarda O'zbekiston San'at ishlari boshqarmasiga rahbarlik qildi.

U qariyb yigirma yildan ko'p (1958-1980) O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasiga rahbarlik qildi. Ayni bir paytda Oybek vafotidan so'ng «O'zbek tili va adabiyoti» oynomasiga muharrirlik ham qildi. U O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyaning haqiqiy a'zosi hamdir. Yashinning ijodiy faoliyati 1925 yildan boshlanadi.

Bu yillarda uning she'r va ocherklari vaqtli matbuotda ko'rina boshladi. Shoirning «Quyosh» (1930), «Kurash» (1931) she'riy to'plamlariga kirgan asarlarida mehnatkash xalq hayotida sodir bo'layotgan yangiliklar, yoshlar taqdiri va kelajagi haqida fikr yuritiladi.

U qishloqlarni kollektivlashtirish davrida «O'rtoqlar» (1930) va «Yondirhamiz» (1931) p'esalarini yozdi. Yashinning «Nomus va muhabbat» (1935), «Hamza» (A. Umariy bilan hamkorlikda, 1940) sahna asarlari Ulug' Vatan urushigacha bo'lgan o'zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalaridandir. O'zbek xotin-qizlarini eskilik sarqitlaridan ozod etishga bag'ishlangan «Gulsara» (1934), «Nurxon» (1940) p'esalari o'z vaqtida yaratilgan, o'sha davr uchun karakterli sahna asarlaridandir.

Komil Yashin Ulug' Vatanurushi davrida yetuk dramaturg darajasiga ko'tarildi. Adibning bu davrda yaratilgan asarlarida do'stlarga nisbatan mehribonli shamimiy muhabbat, dushmanlarga qahru g'azab yogdirildi. «O'lim bosqinchilarga» (1942), «Oftobxon» (1944), «Davron ota» (1942, Uyg'un, Sobir Abdulla, Chustiy bilan birga yozilgan) dramalariga shu ruh singdirilgan.

Komil Yashin «Gulsara» operasining librettosi 1950 yilda Ittifoq Davlat mukofoti laureati degan faxriy unvonni olishga muvassar bo'ldi. «General Rahimov» dramasida (1949) birinchi o'zbek generali Sobir Rahimovning Ulug' Vatanurushida ko'rsatgan qahramonligi aks ettirilgan. Dramaturgning inqilobiy mavzudagi «Yo'lchi yulduz (1957) asari respublikamiz teatrlarida muvaffaqiyat bilan qo'yilib kelindi.

Iste'dodli san'atkor Komil Yashin 1974 yilda «Inqilob tongi» dramasini yozdi. Unda xalqimizning yetuk farzandi, atoqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jaevning siymosi gavdalangan. Unga adabiyot va san'at sohasida xizmatlari uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi va O'zbekiston xalq yozuvchisi, 1974 yilda Mehnat qahramoni unvonlari berildi.

Hamzadek ulug' ustozidan boran Komil Yashin o'zbek dramaturgiyasida yangi sahifalar ochgan, uningtematik doirasini boyitgan, uzoq umrlik asarlar yaratgan adibdir. Adabiyotimizdauning ovozigacha ergashgan, tarbiyasidan bahramand bo'lgan dramaturglar oz emas. Komil Yashinning o'zbek teatri va dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ulkandir.

Komil Yashin keyingi yillarda «Hamza» romanini yozib chop ettirdi. Uningso'nggi asarlaridan biri ikki kitobdan iborat «Yodgorlik» memuaromasidir. Gap Komil Yashin kabi keksa san'atkorlar haqida borganda ular yo'l qo'ygan xatolar yoki nuqsonlarni davr ruhiyati, talabi bilan bog'liq holda ko'rish zarurdir.

To'g'ri, uningko'p asarlarida Uyg'un, G'.G'ulom, N. Safarov va boshqa adiblar kabi partiyaviy avangardlik me'yorida oshib ketgan, shning oqibatida ular asarlarida tarixiy haqiqatdan ma'lum chekinish hollari sodir bo'lgan. Eng muhimi, hozirgi avlod ular yo'l qo'ygan xatolarni takrorlhamasliklaridandir.

